

JISMONIY TARBIYA FANIDA HARAKATLARGA O‘RGATISH

Valixanov Saidjon Shoxobidinovich
ADU Fakultetlararo jismoniy madaniyat
va sport kafedrasini o‘qituvchisi

Har qanday harakat faoliyati haqida ta’lim berish ma’lum vaqtni talab qiladi. Ta’limning har bir bosqichi o‘zining xususiy va ayrim yetakchi tushunchalari bilan ta’riflanadi. Faqat vazifalar ketma-ket bo‘lsagina o‘qituvchi ta’lim usulini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishi, shu qatorda ta’lim prinsiplarini, tayyorlov va yo‘llanma beruvchi mashqlardan foydalanishi, usullarni maqsadga muvofiq qo‘llay olishi mumkin. Ta’lim jarayonining tuzilishi – xususiy vazifalar, prinsiplar, vositalar va usullarning o‘qitish bosqichlaridagi o‘zaro nisbati turg‘un aloqalari orqali vujudga keladi. Harakat faoliyatini o‘rgatish jarayoni jismoniy tarbiya ta’limining tuzilishi deb qaraladi. Ta’lim jarayonining barcha elementlari (xususiy vazifalar, yo‘llanma beruvchi va tayyorlov mashqlari, usullar va boshqalar) harakat faoliyatini o‘rgatishning yakuniy vazifasi bilan bog‘liq. Agarda yakuniy vazifa harakat malakasi yoki oliy tartibdagi harakat malakasini shakllantirish deb qo‘yilsa, unda ta’limning tuzilishi harakat faoliyatini *tanishtirish, o‘zlashtirish, mustahkamlash* degan shartli ravishdagi uchta bosqichlarga ajratiladi. Ayrim hollarda ta’limning bosqichlarini harakat malakasi fazalari bilan almashtirib qo‘yilishiga duch kelamiz.

Faza – harakat malakasi shakllanishining (vujudga kelishining) shartli ravishdagi biologik qonuniyatlarini ifodalaydi. *Bosqichlar* pedagogik jarayonining shartli belgilari bo‘lib jarayondagi pedagogik va biologik qonuniyatlarini aks ettiradi va unga tayanadi. Ta’limning har bir bosqichining uzunligi, davomiyligi harakat malakasi fazalarini shakllanishidek qator faktorlarga: shug‘ullanuvchining jismoniy tayyorgarligi, harakat faoliyatining qiyinligi va boshqalarga bog‘liq.

Ta’lim jarayonining tuzilishini o‘zgarimas deb bo‘lmaydi. Bu jarayon faqat bosqichlar elementlarning tipik aloqasi bo‘lib ta’limning umumiy qonuniyatlarini ifodalaydi va aniq vazifalarga qarab almashinishi, o‘zgartirilishi mumkin. Lekin ta’limning barcha bosqichlarida o‘qituvchi o‘zlashtirilayotgan faoliyatni o‘quvchilar bilan birga tahlil qiladi, baholaydi va xatolarni tuzatadi.

Pedagogik jarayon shug‘ullanuvchining jismoniy, nazariy tayyorgarligi darajasiga qarab, harakat faoliyatining nisbatan oson yoki qiyinligini e’tiborga olib uni zvenolarning o‘zlashtirishning ketma-ketligi belgilashga yo‘naltiriladi.

O‘quvchi ta’limning vazifasini, aniq harakat akti yoki faoliyatini o‘zlashtirish aynan shu dars uchun qo‘yilganini (masalan, balandlikka sakrashda gavgada tezlik berish va boshqalarni) tushunib yetishini ahamiyati katta. O‘quvchi o‘zlashtirilayotgan harakat faoliyatining texnikasining asosini va uning zvenolari tarkibidagi yetakchi harakatlarni anglab olgan bo‘lishi shart. Harakat texnikasi detallarini bilish, ularni shug‘ullanuvchi ongiga yetkazish ta’limning boshqa bosqichlarida amalga oshiriladi.

O‘quvchi tomonidan ta’limning vazifalarini hal etish loyihasi tuziladi. Loyhaga o‘qituvchining yo‘l-yo‘riqlari, o‘quvchi uchun qo‘yiladigan vazifalarni va uni tushuntira bilish, shakllanadigan bilimlar hajmi va harakat tajribalaridan iborat pedagogik jarayon mazmuni kiritiladi. Ayrim hollarda asosiy loyihaga moslab zahira variantidagi loyihalar ham tuziladi. Masalan, peshonaga yoki qo‘lga tayanib tik turishni o‘rgatishda o‘quvchi favqulotda

muvozanatini yo‘qotsa, yoki orqaga yiqilib ketsa nima qilishi lozimligi oldindan rejalashtirilgan bo‘ladi. Loyihaning zahira variantlarini tayyorlash ham asosiy vazifalar tarkibiga kiradi, chunki ta’lim jarayoni ayrim holatlarda shug‘ullanuvchining havfsizligini ta’minlashi nuqtai nazardan ham ularni taqozo etadi. Harakat faoliyatini bajarishning birinchi urinishlarida boshlaboq foydalanayotgan loyiha to‘ldirishlarni, ayrim hollarda esa to‘la tuzatishlar (korrektiv o‘zgartirishlar) kiritilishini talab qilishi mumkin.

O‘zlashtirilayotgan harakat faoliyatining texnikasini oson-qiyinligi va unda shikastlanish havfi darajasiga qarab, harakat faoliyatini bajarishga urinish yoki birinchi marotaba bajarib ko‘rish muhim ahamiyatga ega. Mashq texnikasi nisbatan oson bo‘lsa, harakat faoliyati qanday bajarilsa shundayligicha bajarib o‘rganish qo‘llaniladi. Bu bilan o‘zlashtirilayotgan harakat faoliyati haqida to‘la umumiy tasavvur hosil qilish oson kechadi va tuzilgan loyihani to‘g‘ri, noto‘g‘riligi nazorat qilinadi. Harakatni o‘rganish oson kechsa ta’lim jarayoniga o‘zgartirish kiritilmaydi, faoliyatni o‘zlashtirishni shu metod bilan amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Qiyin va xavfli mashqlarni o‘rganishda, bo‘laklarga (qismlarga) ajratib o‘rganish – harakat haqida to‘g‘ri tasavvur hosil qilishni tezlashtiradi, o‘qitishning samaradorligini oshiradi. Tasavvurni hosil qilish qiyin kechsa o‘sha mashq texnikasining o‘z ichiga olgan yo‘llanma beruvchi mashqlar tanlanadi va ulardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ayrim hollarda o‘quvchida birlamchi tasavvur hosil qilish uchun mashqni bajarishda unga jismonan yordam beriladi. Yordam berish ancha samarali bo‘lib, mashqni o‘quvchi tomonidan chuqurroq his qilishga olib keladi. Amaliyotda shunday mashqlar yoki harakat faoliyatlarini o‘rgatishga to‘g‘ri keladi mashq bajaruvchiga o‘qituvchi tomonidan hech qanday yordam berib bo‘lmaydi.

Tanishtirish bosqichida so‘zdan foydalanish va ko‘rgazmali his qilish usuliyatlari nisbatan xarakterlidir. Harakat faoliyatini to‘la yoki bo‘laklarga ajratib o‘qitish usuliyatidan ham foydalanish mumkin.

Ta’lim jarayonining harakat faoliyatini o‘zlashtirish va mustahkamlash bosqichlarining asosiy vazifasi – harakatni bajara olish (o‘rganish), malaka hosil qilib unga ko‘nikmaga aylashtirishni o‘z ichiga oladi. Bu bosqichning asosida harakat faoliyati tarkibida ajratib olingan ayrim harakatlarni va harakat faoliyatini to‘laligicha, ko‘p marotalab takrorlash, mashq qilish jarayoni yotadi. Har bir takrorlash tashqi tomondan bir xilday ko‘rinsada, har safargisining mazmuni oldingisidan farqlanadi. Boshlang‘ich malaka mustahkamlanishiga yuz tutadi.

Takomillashtirish etapida ta’limning barcha metodlaridan kompleksli foydalaniladi, lekin faoliyatni bir butunligicha o‘zlashtirib, musobaqa va o‘yin metodlaridan yetakchi usul sifatida foydalaniladi. Bir vaqtning o‘zidan ko‘rish va eshitish orqali mo‘ljall olishdan foydalanish hajmining ozayishi hisobiga harakatni his qilish hissiyoti ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. To‘xtaboyev N.T. Jismoniy tarbiya mutaxassislarining kasbiy mahoratini rivojlantirish. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Toshkeht. 2010 y
2. Xo‘jayev F. O‘zbekistonda jismoniy tarbiya. Toshkent “O‘qituvchi” 1997 y.